



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

¹Jabbor Eshbekovich Usarov

²Samandar Xabibullayevich Xabibullayev

¹CHDPU, professori, jabborusarov68@gmail.com, +99890/9256800

²CHDPU katta o'qituvchisi s.xabibullayev@cspi.uz, +99897.702-85-31

SPORT VA SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI MODELLASHTIRISH TUSHUNCHALARI VA UNING IJTIMOIIY- HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Bugungi kunda sportni davlat tomonidan ijtimoiy-huquqiy tartibga solish bo'yicha muhim tadbirlar va professional sportga oid masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi aholining sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda mazkur sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi. Maqolada mazkur sohadagi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslari, jismoniy tarbiya, sport va sog'lomlashtirish masalalari talqin etilgan.

Kalit so'zlar. Sport, boshqaruv, musobaqa, huquq, vakolat, jismoniy tarbiya, anjom, murabbiy.

Аннотация. Сегодня большое внимание уделяется важным мероприятиям по социально-правовому регулированию спорта со стороны государства и вопросам, связанным с профессиональным спортом. Это создает необходимость внедрения инновационных идей и технологий в сферу физической культуры и спорта, утверждения и поддержки здорового образа жизни населения. В статье рассматриваются правовые основы социальных отношений в данной сфере, вопросы физической культуры, спорта и оздоровления.

Ключевые слова. Спорт, управление, соревнования, право, полномочия, физическое воспитание, снаряжение, тренер.



Abstract. Today, much attention is paid to important measures on the social and legal regulation of sports by the state and issues related to professional sports. This creates the need for the introduction of innovative ideas and technologies in the field of physical culture and sports, the adoption and support of a healthy lifestyle of the population. The article considers the legal basis of social relations in this area, issues of physical culture, sports and health.

The key words. Sports, governance, competition, law, authority, physical education, equipment, coach.

Kirish. Jamiyatimizdagi jadal rivojlanishlar va taraqqiyot sport va sog'lomlashtirish sohalarida ham olib borilayotgan ishlarning to'g'ri tizimda ekanligini ko'rsatadi. Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar, udumlari va an'analari bor. Bizda oila va ularda sog'lom avlodlarning dunyoga kelishi oilaning barqaror va mustahkam bo'lishi, ularning jamiyat va qarindosh-urug'lari orasidagi tarbiyaviy munosabatlarga jiddiy e'tibor bilan yondashiladi. Shuningdek milliy qadriyatlar, sharqona urf odatlar va sog'lom turmush tarzi hamisha e'zozlanadi. Sog'lom turmush tarzi dastlab oilada shakllanadi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishda jismoniy tarbiyaning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda sportni davlat tomonidan ijtimoiy-huquqiy tartibga solish bo'yicha muhim tadbirlar va professional sportga oid masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Sport va sog'lomlashtirish tadbirlari natijasining barqarorligi shug'ullanuvchining shaxsiga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Bunday holda sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishning asosiy mezon sifatida uning individual moyilligi (aksiologik layoqati), masalan, unga yuklatilgan majburiyatni bajara olishiga sarflaydigan kuch-g'ayrati, morfologik vazifalarga moyilligi (instrumental layoqati) oldida belgilangan me'yorlarni hurmat qilishi, masalan, harakatlantiruvchi bilimi va qobiliyati qabul qilinishi asosli hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar aholining sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, sportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mazkur sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llash orqali zamonaviy sport mexanizmlari joriy etishdan iborat. Shu sababli mazkur sohadagi ijtimoiy munosabatlarning xuquqiy asoslarini doimiy takomillashtirib borish davlat talablaridan biridir.

2015-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [2] hamda "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini



rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori [3] jismoniy tarbiya va sport sohasini samarali boshqarish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning xuquq va erkinliklarini ta'minlashning kafolatlarini belgilashga xizmat qilmoqda.

Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish va uning ijtimoiy-huquqiy asoslari sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan. Ta'lim tizimining bosqichlari bilan bevosita va bilvosita bog'liqlikda olib borilayotgan sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi uchrashuvlar, yoshlarni sport to'garaklariga jalb qilish, talabalar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish chora tadbirlari talaba yoshlarni shijoatli, vatanparvaroik ruxida tarbiyalashga yordam bermoqda.

Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish, ommaviy jismoniy tarbiya va sport tizimini yaratishning asosiy yo'nalishlari, yoshlarning ta'lim olishi va sog'lig'ini saqlash chora tadbirlari quyidagilardan iborat:

1) yoshlar sporti va jismoniy tarbiyada ommaviy boshqaruvning tashkiliy asoslarini ishlab chiqish va shakllantirish;

2) yoshlar muhitida jismoniy tarbiya va sport faoliyati tizimini takomillashtirish;

3) jismoniy tarbiya va sportning tashkiliy va boshqaruv sub'ektlarining o'zaro hamkorligini takomillashtirish;

4) yoshlarning ijtimoiy-demografik guruhlarida turli xil jismoniy faoliyat parametrlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

5) yoshlarni jismoniy va sport tarbiyasi va turli yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda kamol toptirish tizimini rivojlantirish;

6) qulay o'quv-tarbiyaviy muhitni yaratish va ta'lim va kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida sog'liqni saqlash texnologiyalarini amalga oshirish.

Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish talabalar salomatligini mustahkamlash, "salomatlik madaniyati", "jismoniy madaniyat", "shaxsning jismoniy madaniyati" tushunchalarining mohiyatini umumiy tushuntirish, salomatlikka bo'lgan motivatsion va qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirishga asos bo'ladi. Ayni paytda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ularning mustaqil ta'lim ko'nikmasi shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi [8]. Talabalarning jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda ommalashtirish dasturlarini loyihalashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishning dolzarbligi quyidagi tendensiyalar bilan belgilanadi:

- inson salomatligini shakllantirish, rivojlantirish va saqlash mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganish sohasidagi ilmiy tadqiqot natijalarining jadal o'sishi;

- inson tanasining hissiy, og'zaki va izchil tizimlarining funksional holatiga axborot yukini oshirish;

- atrof-muhitning texnogen ifloslanishi va iqlimning keskin o'zgarishi.



Funksional maqomi va salomatligi yuqori, raqobatbardosh, yuqori malakali yosh mutaxassislarni tayyorlash zamonaviy oliy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogika fanining strategik vazifalari eng samarali jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish tadbirlari orqali salomatlikni mustahkamlash va saqlashning yangi shakllari va texnologiyalarini izlashdan iborat.

Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish tushunchalari, ularning mazmuni, shakllari va usullari S.A.Sokolov [5], L.F.Tixomirova [6] va boshqalarning asarlarida yoritilgan bo'lb, mazkur tadbirlarini modellashtirish nazariyasini o'rganishda bir qator qarama-qarshiliklar aniqlandi, jumladan:

- jamiyat va davlatning sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga e'tibor qaratilishi hamda ushbu maqsadlarga erishish uchun sport-sog'lomlashtirish tadbirlari imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmaslik;

- jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ijtimoiy kamolotini ta'minlash uchun ma'lum vositalardan foydalanish metodologiyasining ishlab chiqilmaganligi va bolalar va o'smirlarni ijtimoiy tarbiyalash nazariyasining o'rganilgan jihatlari;

- jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish bo'yicha to'plangan tajriba va talabalar bilan tarbiyaviy ishlarda sport va dam olish tadbirlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar yo'qligi.

Tadqiqot metodologiyasi: V.A.Smironovning nazariy qarashlarida [4] talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'illanishlari, unda sog'liqni saqlash texnologiyalarini shakllantirishni ikki darajani ajratadi. Birinchisi tashkiliy daraja, ya'ni huquqiy hujjatlar majmui, shuningdek, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida yoshlar bilan ishlashni tartibga soluvchi va amalga oshiruvchi xalqaro, davlat va jamoat tuzilmalari tizimi. Ikkinchisi, sog'liqni saqlash faoliyatini texnologik jihatdan ta'minlashga yordam beradigan texnologik daraja. Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun sport va sog'lomlashtirish dasturlarini loyihalash ikkita muhim komponent o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi: bir tomondan, yuqori darajadagi sport (yuqori darajadagi, professional sport) nazorat qilinadigan sport turi sifatida va davlat va mintaqaviy darajasida boshqariladi; boshqa tomondan, ommaviy sport (hamma uchun sport) darajada hududiy hokimiyat organlari tomonidan nazorat qilinadigan va boshqariladigan sport turi sifatida.

Yoshlar sportini boshqarishning asosiy maqsadi turli jamoat tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan jismoniy tarbiya va sport muassasalarining faoliyatini yosh avlod o'rtasida ommaviy sportni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligini ta'minlashdan iborat. Shu ma'noda, talabalarni ommaviy sport va sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish, sog'lom ijtimoiylashtirish tizimini yaratishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan belgilanadi:



1) yoshlarning ommaviy sporti va jismoniy tarbiyasini boshqarishning tashkiliy-boshqaruv sub'ektlarining o'zaro hamkorligini takomillashtirish;

2) yoshlarning turli ijtimoiy-demografik guruhlar uchun jismoniy faollik parametrlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

3) turli yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yoshlarni jismoniy va sport tarbiyasi va rivojlantirish tizimini rivojlantirish;

4) qulay ta'lim va ta'lim muhitini yaratish va yoshlarning ta'lim va kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonida sog'liqni saqlashni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish.

Tahlil va natijalar: Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish deganda biz talabalarda salomatlik madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan barcha psixologik, pedagogik va ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar, dasturlar va usullarni nazarda tutamiz. Yoshlarni jismoniy tarbiya, sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borishga undashga hissa qo'shadigan shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, shuningdek, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga e'tibor qaratish. O'ylaymizki, shundan keyingina qo'llanilayotgan pedagogik tizimni amaliyotga tatbiq etish talabalar salomatligini asrash muammosini hal etsa, o'quv jarayoni jismoniy tarbiya, sport va sog'liqni saqlashni tejaydigan ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi, deb aytish mumkin.

Ta'kidlash joizki, salomatlikni tejaydigan texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi. M.Vaskov [7] fikricha, shaxsiy rivojlanish holatlari asosida amalga oshirilayotgan salomatlikni tejaydigan texnologiyalar ham shunday hayotiy omillar sirasiga kiradiki, buning natijasida yoshlarning o'zaro samarali munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi qadriyat yo'nalishlari tizimi shakllanadi.

Sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish tadbirlarini loyihalash nazariyasi: jismoniy tarbiya jarayonida talabalar salomatligini shakllantirish, rivojlantirish va saqlashni ta'minlovchi asosiy mexanizm va omillar to'g'risidagi bilimlar; yurak-nafas olish tizimi va energiya ta'minoti mexanizmlarining funksional imkoniyatlari ko'rsatkichlari; salomatlik va jismoniy tayyorgarlik faoliyatiga motivatsion va qadriyatli munosabat; sog'lomlashtiruvchi jismoniy faoliyat; dam olish; jismoniy faollikni hisobga olgan holda ratsional, muvozanatli ovqatlanish hamda oliy ta'lim muassasasida o'qish jarayonida talabalarning funksional holati va sog'lig'i darajasi ko'rsatkichlari dinamikasi kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar: Shunday qilib, sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini modellashtirish ommaviy tadbirlarini loyihalash nazariyasi "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va talaba yoshlar o'rtasida "Universiada" kabi sport musobaqalarini o'tkazishni ham o'z ichiga olishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu esa birinchidan talabalarning bosqichlardan saralab olinishi va yoshlarning universiadalarida va yozgi



olimpiada o‘yinlarida qatnashishi bo‘lsa, ikkinchidan, ularning psixologik jihatdan barqarorligi ta‘minlanadi. Mazkur holatlar natijasi sifatida sovrindor talabalarning yurtimiz bayrog‘ini yuqori ko‘tarishlariga imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida. 04.09.2015-yil. O‘RQ-394-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 05.03.2018-yil. PF-5368-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida. 10.08.2017-yil. PQ-3196-son.
4. Смирнов В.А. Институционализация региональной молодежной политики в условиях трансформации российского общества: Док.соц.наук, 2011. – 45 с.
5. Соколов С.А. Формирование социального опыта подростков группы риска в физкультурно-оздоровительной деятельности: дис..к.п.н. Кострома, 2003.-22 с.
6. Тихомирова Л.Ф. Теоретико-методические основы здоровьесберегающей педагогики / Л.Ф. Тихомирова. - Ярославль, 2004. – 240 с.
7. Усаров Дж.Э., Химматалиев Д.О., Махмудова Д.М., Хайдарова С.А., Эрназаров А.Н., Педагогические основы индивидуальной траектории обучения студента, 2023/5/17. Журнал: Телематика, с 1259-1264.
8. G.Mukhamedov, J.Usarov va b. /General Classifications of Pedagogy and Psychology. Volume 22 Issue 1, 2023 ISSN: 1856-4194 341 – 347 341